

## TO‘QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALAR SAMARADORLIGINI TEXNOLOGIK VA INSTITUTSIONAL OMILLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

**Alabayev Sobitxon Ibragimovich**

Namangan davlat texnika universiteti  
katta o‘qituvchisi

E-mail: [sobithonalabaev@gmail.com](mailto:sobithonalabaev@gmail.com)

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada to‘qimachilik sanoatida investitsion loyihalarning texnologik-modernizatsion va institutsional samaradorlik modelini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqotda investitsion loyihalarning ishlab chiqarish samaradorligi, eksport salohiyati, texnologik yangilanish va sanoat raqobatbardoshligiga ta’siri tahlil qilingan. Institutsional qo‘llab-quvvatlash, innovatsion boshqaruv va sanoat klasterlari faoliyatining investitsion samaradorlikka ta’siri baholangan. Tadqiqot natijasida to‘qimachilik sanoatida investitsion resurslardan samarali foydalanish, texnologik transformatsiyani jadallashtirish va sanoat infratuzilmasini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** to‘qimachilik sanoati, investitsion loyihalar, texnologik modernizatsiya, institutsional samaradorlik, sanoat klasterlari, eksport salohiyati, innovatsion boshqaruv, investitsion samaradorlik, sanoat transformatsiyasi, iqtisodiy rivojlanish.

### **Аннотация**

В данной статье исследуются вопросы совершенствования модели технологической модернизации и институциональной эффективности инвестиционных проектов в текстильной промышленности. Проанализировано влияние инвестиционных проектов на производственную эффективность, экспортный потенциал, технологическое обновление и конкурентоспособность отрасли. Оценена роль институциональной поддержки, инновационного управления и деятельности промышленных кластеров в повышении инвестиционной эффективности. По результатам исследования разработаны научно-практические рекомендации по эффективному использованию инвестиционных ресурсов, ускорению технологической трансформации и совершенствованию промышленной инфраструктуры текстильной отрасли.

**Ключевые слова:** текстильная промышленность, инвестиционные проекты, технологическая модернизация, институциональная эффективность, промышленные кластеры, экспортный потенциал, инновационное управление, инвестиционная эффективность, промышленная трансформация, экономическое развитие.

### **Abstract**

This article examines the improvement of the technological modernization and institutional efficiency model of investment projects in the textile industry. The study analyzes the impact of investment projects on production efficiency, export potential, technological renewal, and industrial competitiveness. It evaluates the role of

institutional support, innovative management, and industrial cluster activities in enhancing investment efficiency. Based on the findings, scientific and practical recommendations were developed for the effective use of investment resources, acceleration of technological transformation, and improvement of industrial infrastructure in the textile sector.

**Keywords:** textile industry, investment projects, technological modernization, institutional efficiency, industrial clusters, export potential, innovative management, investment efficiency, industrial transformation, economic development.

## KIRISH

To‘qimachilik sanoati rivojlanayotgan mamlakatlar uchun sanoatlashuv, eksport salohiyatini kengaytirish, bandlikni oshirish va qo‘shilgan qiymat zanjirlarini chuqurlashtirishda strategik tarmoq hisoblanadi. Jahon banki tadqiqotlarida to‘qimachilik va kiyim-kechak sanoati global qiymat zanjirlarida ishtirok etish, texnologik yangilanish va yuqori qo‘shilgan qiymatli segmentlarga o‘tish orqali rivojlanayotgan iqtisodiyotlar uchun muhim sanoat platformasi sifatida baholanadi [1]. Bu holat investitsion loyihalarni faqat ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish vositasi sifatida emas, balki texnologik-modernizatsion va institutsional samaradorlikni oshiruvchi strategik mexanizm sifatida tadqiq etishni talab qiladi.

UNIDO tomonidan e‘lon qilingan Industrial Development Report 2024 hisobotida sanoat tarmoqlarining barqaror rivojlanishi raqamlashtirish, texnologik yangilanish, sanoat siyosati va ekologik transformatsiya bilan bevosita bog‘liq ekani qayd etilgan [2]. Hisobotda ishlab chiqarish sanoati ish o‘rinlari yaratish, texnologiyalarni joriy etish va iqtisodiy o‘shishni tezlashtirishda muhim omil sifatida ko‘rsatiladi. Shu nuqtai nazardan, to‘qimachilik sanoatida investitsion loyihalar samaradorligini baholashda faqat kapital qo‘yilmalar hajmi emas, balki texnologik audit, ishlab chiqarish unumdorligi, eksportga yo‘naltirilganlik, resurs tejamkorligi va institutsional boshqaruv sifati asosiy mezon bo‘lishi zarur [2].

Xalqaro savdo markazi ma‘lumotlariga ko‘ra, tekstil va kiyim-kechak tarmog‘ida raqobatbardoshlikni oshirish uchun korxonalar sifat standartlari, bozor talablariga moslashuv, mahsulot diversifikatsiyasi va ekologik mas‘uliyat tamoyillarini kuchaytirishi lozim [3]. Demak, Namangan viloyati to‘qimachilik sanoatida investitsion loyihalar samaradorligini oshirish ishlab chiqarishning oddiy hajmiy o‘shishi bilan emas, balki texnologik yangilanish, eksport bozorlariga moslashish, klasterlararo kooperatsiya va institutsional qo‘llab-quvvatlash tizimining uzviyligi bilan belgilanadi.

O‘zbekiston sharoitida mazkur mavzuning dolzarbligi so‘nggi yillarda to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini yangi sifat bosqichiga olib chiqishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar bilan yanada kuchaydi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-maydagi PF-71-son Farmonida to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishning yangi bosqichi, sanoat zonalarini qo‘llab-quvvatlash, soliq imtiyozlari va institutsional shart-sharoitlarni yaxshilash masalalari belgilangan [4]. Bu farmon investitsion loyihalarni hududiy sanoat siyosati, texnologik modernizatsiya va klasterlashuv bilan bog‘lash zaruratini kuchaytiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 16-yanvardagi PF-6-son Farmonida to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishni kengaytirish, ip-kalavani chuqur qayta ishlashni rivojlantirish hamda 5,0 milliard AQSH dollari miqdorida xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb qilish vazifasi belgilangan [5]. Bu esa investitsion loyihalarning samaradorligini faqat moliyaviy ko‘rsatkichlar orqali emas, balki chuqur qayta ishlash, texnologik yangilanish, qo‘shilgan qiymat yaratish va institutsional monitoring tizimi orqali baholash zarurligini ko‘rsatadi.

Namangan viloyati to‘qimachilik sanoati uchun mazkur masala yanada muhimdir. Viloyatda mehnat resurslari salohiyati, paxta-to‘qimachilik klasterlari, kichik sanoat zonalari, tikuv-trikotaj korxonalar va eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarish imkoniyatlari mavjud. Biroq asosiy muammo investitsion loyihalarning sonida emas, balki ularning texnologik-modernizatsion natijadorligi, ishlab chiqarish zanjirlariga integratsiyasi, eksport bozorlariga chiqish salohiyati va institutsional qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligidadir. Shu sababli mazkur maqolada to‘qimachilik sanoatida investitsion loyihalarning texnologik-modernizatsion va institutsional samaradorlik modelini takomillashtirish masalasi ilmiy-amaliy jihatdan tadqiq etiladi.

### **ADABIYOTLAR SHARHI**

To‘qimachilik sanoatida investitsion loyihalarning texnologik-modernizatsion va institutsional samaradorligini baholash masalasi sanoat iqtisodiyoti, institutsional iqtisodiyot, innovatsion rivojlanish va global qiymat zanjirlari nazariyalari bilan chambarchas bog‘liqdir. D. North institutsional iqtisodiyot nazariyasida iqtisodiy samaradorlikning asosiy omili sifatida institutlar sifatini ko‘rsatib, ishlab chiqarish samaradorligi texnologik resurslar bilan bir qatorda boshqaruv, huquqiy tartibot va institutsional muhitga ham bog‘liq ekanini asoslaydi [6]. Ushbu yondashuv to‘qimachilik sanoatida investitsion loyihalarning muvaffaqiyati faqat kapital qo‘yilmalari hajmi bilan emas, balki ularni boshqarish va monitoring qilish tizimi bilan ham belgilanishini ko‘rsatadi.

R. Coase tranzaksiya xarajatlari nazariyasida ishlab chiqarish tizimlarining samaradorligi iqtisodiy subyektlar o‘rtasidagi axborot almashinuvi, shartnomalar sifati va institutsional moslashuvchanlik darajasiga bog‘liqligini ta’kidlaydi [7]. To‘qimachilik sanoatida bu ayniqsa muhim, chunki investitsion loyihalarda xomashyo ta’minoti, logistika, eksport, texnologik uskunalari va mehnat resurslari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik buzilganda tranzaksiya xarajatlari keskin ortadi. Shu sababli investitsion loyihalarda institutsional koordinatsiya samaradorlikning asosiy determinantiga aylanadi.

M. Porter sanoat klasterlari nazariyasida hududiy raqobatbardoshlikni shakllantirishda ishlab chiqarish korxonalar, infratuzilma, ta’lim muassasalari va logistika tizimlarining integratsiyasini asosiy omil sifatida ko‘rsatadi [8]. Muallifga ko‘ra, sanoat klasterlari innovatsiyalar diffuziyasi va texnologik modernizatsiyani tezlashtiradi. Bu yondashuv Namangan viloyatida paxta-to‘qimachilik klasterlari va

eksportga yoʻnaltirilgan ishlab chiqarish tizimlarini rivojlantirishning ilmiy asosini yaratadi.

J. Shumpeter innovatsion rivojlanish nazariyasida texnologik yangilanish iqtisodiy oʻsishning asosiy manbai ekanini qayd etadi [9]. Uning “ijodiy vayronkorlik” konsepsiyasiga koʻra, eski ishlab chiqarish texnologiyalari va boshqaruv shakllari innovatsion tizimlar bilan almashgandagina sanoat samaradorligi oshadi. Toʻqimachilik sanoatida investitsion loyihalarning muvaffaqiyati aynan texnologik modernizatsiya darajasi va innovatsion ishlab chiqarish quvvatlariga bogʻliqdir.

P. Romerning endogen iqtisodiy oʻsish nazariyasi bilim, innovatsiya va texnologik taraqqiyotni iqtisodiy rivojlanishning ichki omili sifatida talqin qiladi [10]. Muallifning fikricha, sanoat tarmoqlarining raqobatbardoshligi innovatsion investitsiyalar va ilmiy-texnik taraqqiyotga moslashish qobiliyatiga bogʻliq. Bu yondashuv tekstil sanoatida investitsion loyihalarni oddiy kapital qoʻyilmasi emas, balki innovatsion iqtisodiy transformatsiya vositasi sifatida koʻrish zarurligini anglatadi.

M. Castells raqamli iqtisodiyot va tarmoq jamiyati nazariyasida ishlab chiqarish tizimlarining samaradorligi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan integratsiyalashuv darajasiga bogʻliq ekanini taʼkidlaydi [11]. Zamonaviy tekstil sanoatida raqamli logistika, aqlli ishlab chiqarish (smart manufacturing), elektron monitoring va Sanoat 4.0 texnologiyalari investitsion samaradorlikning yangi determinantiga aylanmoqda. Demak, texnologik-modernizatsion modelni takomillashtirish raqamli boshqaruv tizimlari bilan uzviy bogʻliqdir.

M. Porter va M. Kramer “shared value” konsepsiyasida korxonalar iqtisodiy foyda bilan bir qatorda ijtimoiy samaradorlikni ham yaratishi kerakligini asoslaydi [12]. Ushbu yondashuv tekstil sanoatida investitsion loyihalarni faqat foyda manbai sifatida emas, balki bandlik yaratish, hududiy rivojlanish va eksport salohiyatini oshirish vositasi sifatida talqin qilish imkonini beradi.

G. Gereffi global qiymat zanjirlari nazariyasida tekstil va kiyim-kechak sanoati xalqaro ishlab chiqarish tizimlariga eng tez integratsiyalashuvchi tarmoqlardan biri ekanini koʻrsatadi [13]. Muallifga koʻra, ishlab chiqaruvchilar yuqori qoʻshilgan qiymatli segmentlarga oʻtmaguncha investitsion samaradorlik cheklangan boʻlib qoladi. Bu Namangan viloyatida ip-kalava eksportidan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga oʻtish zarurligini ilmiy asoslaydi.

A.G. Granberg hududiy iqtisodiyot nazariyasida sanoat tarmoqlari rivojlanishi hududiy infratuzilma, mehnat resurslari va institutsional boshqaruv sifati bilan bogʻliq ekanini qayd etadi [14]. Toʻqimachilik sanoatida investitsion loyihalarning muvaffaqiyati ham aynan hududiy iqtisodiy muhit va ishlab chiqarish klasterlari bilan uzviy bogʻliq.

Mahalliy iqtisodchi Q.X. Abdurahmonov hududiy iqtisodiyot va sanoat boshqaruvi tizimida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda mehnat resurslari, innovatsion infratuzilma va institutsional qoʻllab-quvvatlashning muhimligini taʼkidlaydi [15]. Muallifning yondashuvi tekstil sanoatida investitsion loyihalarni

baholashda iqtisodiy, texnologik va ijtimoiy omillarni birgalikda hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

S.S. G'ulomov raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat tarmoqlarida boshqaruv tizimlari tubdan transformatsiyalanayotganini qayd etadi [16]. Muallifning fikricha, ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish, logistika monitoringi va elektron boshqaruv tizimlari investitsion samaradorlikni oshirishning muhim omilidir. Bu yondashuv to'qimachilik sanoatida Sanoat 4.0 texnologiyalarini joriy etish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, to'qimachilik sanoatida investitsion loyihalarning muvaffaqiyati faqat moliyaviy resurslar hajmi bilan emas, balki texnologik modernizatsiya, institutsional boshqaruv, innovatsion infratuzilma, raqamli transformatsiya va global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuv darajasi bilan belgilanadi. Mavjud ilmiy yondashuvlarda investitsion loyihalar samaradorligi ko'proq umumiy iqtisodiy nuqtai nazardan o'rganilgan bo'lsa-da, Namangan viloyati misolida tekstil sanoatining texnologik-modernizatsion va institutsional samaradorlik modelini kompleks baholash masalasi yetarlicha tadqiq etilmagan. Shu jihatdan mazkur tadqiqot investitsion loyihalarning iqtisodiy, texnologik va institutsional ko'rsatkichlarini yagona integratsion tizim asosida tahlil qilishi bilan ilmiy ahamiyat kasb etadi.

## **METODOLOGIYA**

Mazkur tadqiqot metodologiyasi to'qimachilik sanoatida investitsion loyihalarning texnologik-modernizatsion va institutsional samaradorligini kompleks baholashga yo'naltirildi. Tadqiqotda tizimli yondashuv, institutsional tahlil, qiyosiy baholash, tarkibiy-dinamik tahlil va integral indekslash usullaridan foydalanildi. Metodologik asos sifatida investitsiya hajmi, ishlab chiqarish quvvati, texnologik yangilanish darajasi, eksportga yo'naltirilganlik, klasterlashuv, mehnat unumdorligi va institutsional qo'llab-quvvatlash o'rtasidagi sabab-oqibat bog'liqliklari tahlil qilindi. Investitsion loyiha samaradorligi faqat moliyaviy natija emas, balki texnologik transformatsiya, qo'shilgan qiymat yaratish va sanoat raqobatbardoshligini oshirish mezonlari orqali baholandi.

Tadqiqot jarayonida induksiya va deduksiya, ilmiy abstraksiyalash, guruhlash, trend-ekstrapolyatsiya, normalashtirish, ekspert-analitik baholash hamda kompleks indeks shakllantirish usullari qo'llanildi. Ushbu yondashuv to'qimachilik sanoatida investitsion loyihalarning iqtisodiy, texnologik va institutsional natijalarini o'zaro bog'liq holda baholash imkonini beradi. Metodologiya orqali investitsiyalarning ishlab chiqarish samaradorligi, eksport salohiyati, texnologik modernizatsiya va klasterli rivojlanishga ta'siri aniqlanadi. Mazkur yondashuv investitsion loyihalarni oddiy kapital qo'yilma sifatida emas, balki sanoat transformatsiyasini jadallashtiruvchi strategik mexanizm sifatida ilmiy asoslashga xizmat qiladi.

## **TAHLIL VA NATIJALAR**

Mazkur bo'limda Namangan viloyati va uning barcha tumanlarida to'qimachilik sanoati investitsion loyihalarining texnologik-modernizatsion va institutsional samaradorlik darajasi 2016-2025-yillar kesimida kompleks baholanadi. Tahlil uchun 4

ta jadval shakllantirilib, ularda texnologik-modernizatsion rivojlanish indeksi, institutsional samaradorlik indeksi, eksport va qo‘shilgan qiymat samaradorligi indeksi hamda ushbu ko‘rsatkichlarni umumlashtiruvchi kompleks samaradorlik indeksi keltiriladi. Mazkur jadvallar hududlar kesimida investitsion loyihalarning ishlab chiqarish yangilanishi, eksportga yo‘naltirilganligi, klasterlashuv salohiyati va boshqaruv natijadorligini tizimli baholash imkonini beradi.

Tadqiqotda Namangan viloyatining to‘qimachilik sanoati hududiy sanoat transformatsiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida ko‘rib chiqiladi. Jadval ko‘rsatkichlari sanoat ishlab chiqarishi, investitsion faollik, eksport salohiyati, texnologik yangilanish va institutsional qo‘llab-quvvatlash omillarini umumlashtirish asosida shakllantirilgan. 2025-yil qiymatlari mavjud dinamik tendensiyalar asosida prognoz qilingan bo‘lib, ular hududlarda investitsion loyihalarning kelgusi texnologik va institutsional natijadorligini baholashga xizmat qiladi.

### 1-jadval

#### Namangan viloyati hududlarida to‘qimachilik sanoati investitsion loyihalarining texnologik-modernizatsion rivojlanish indeksi<sup>1</sup>

Hududlar	Yillar									
	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Namangan shahri	0,318	0,336	0,355	0,376	0,399	0,423	0,447	0,472	0,501	0,528
Namangan	0,128	0,136	0,145	0,155	0,166	0,178	0,190	0,203	0,218	0,232
Mingbuloq	0,064	0,069	0,075	0,082	0,090	0,098	0,107	0,117	0,129	0,142
Kosonsoy	0,102	0,110	0,119	0,130	0,142	0,155	0,169	0,184	0,201	0,218
Norin	0,061	0,066	0,072	0,079	0,087	0,095	0,104	0,114	0,126	0,138
Pop	0,118	0,129	0,141	0,155	0,171	0,189	0,209	0,232	0,258	0,283
To‘rao‘rg‘on	0,137	0,149	0,163	0,179	0,198	0,220	0,244	0,271	0,301	0,329
Uychi	0,112	0,121	0,131	0,142	0,155	0,169	0,185	0,202	0,221	0,241
Uchqo‘rg‘on	0,093	0,100	0,108	0,117	0,127	0,138	0,150	0,163	0,178	0,194
Chortoq	0,086	0,093	0,101	0,111	0,122	0,134	0,148	0,163	0,180	0,198
Chust	0,131	0,143	0,156	0,171	0,188	0,208	0,230	0,255	0,283	0,309
Yangiqo‘rg‘on	0,116	0,126	0,137	0,149	0,163	0,179	0,196	0,215	0,237	0,258

1-jadval natijalari Namangan viloyati to‘qimachilik sanoatida investitsion loyihalarning texnologik-modernizatsion samaradorligi hududiy sanoat salohiyati, texnologik singdiruvchanlik va klasterlashuv darajasi bo‘yicha keskin differensiallashganini ko‘rsatadi. 2016-2025-yillarda Namangan shahri indeksi 0,318 dan 0,528 gacha oshib, 66,0 foizlik o‘shishni qayd etgan. Biroq eng yuqori nisbiy o‘shish To‘rao‘rg‘on tumanida kuzatilgan: indeks 0,137 dan 0,329 gacha oshib, 140,1 foizlik o‘shishga erishgan. Chust tumanida ko‘rsatkich 0,131 dan 0,309 gacha, ya‘ni 135,9 foizga, Pop tumanida esa 0,118 dan 0,283 gacha o‘sgan. Aksincha, 2025-yilda Norin 0,138, Mingbuloq 0,142, Uchqo‘rg‘on 0,194 indeks bilan past modernizatsiya zonasida qolmoqda. Namangan shahri va Norin tumani o‘rtasidagi 0,390 punktlilik tafovut investitsion loyihalarning texnologik natijadorligi hududlar bo‘yicha mutanosib emasligini ochiq ko‘rsatadi.

<sup>1</sup> Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasining sanoat, investitsiya va ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari asosida muallif ishlanmasi

Mazkur holatning ilmiy talqini shundan iboratki, to‘qimachilik sanoatida investitsion loyiha samaradorligi oddiy kapital qo‘yilmasi yoki ishlab chiqarish quvvatini kengaytirish bilan cheklanmaydi. Haqiqiy samaradorlik investitsiyaning yangi texnologiyalarni singdirish, ishlab chiqarish unumdorligini oshirish, mehnat resurslarini qayta malaka oshirish, eksportbop mahsulotlar ulushini kengaytirish va yuqori qo‘shilgan qiymat zanjiriga ulanish qobiliyati bilan belgilanadi. Namangan shahri, To‘raqo‘rg‘on va Chustdagi ijobiy dinamika sanoat klasterlari va texnologik modernizatsiya o‘rtasida nisbatan barqaror bog‘liqlik shakllanayotganini bildiradi. Mingbuloq, Norin va Uchqo‘rg‘ondagi past indekslar esa bu hududlarda investitsiyalar texnologik transformatsiyaga emas, ko‘proq mavjud quvvatlarni saqlab turishga xizmat qilayotganini ko‘rsatadi. Bu - jiddiy zaiflik: agar investitsiya texnologik yangilanishga aylanmasa, u uzoq muddatda eksport raqobatbardoshligini ham, sanoat samaradorligini ham oshirmaydi.

## 2-jadval

### Namangan viloyati hududlarida to‘qimachilik sanoati investitsion loyihalarining institutsional samaradorlik indeksi<sup>1</sup>

Hududlar	Yillar									
	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Namangan shahri	0,284	0,302	0,323	0,346	0,372	0,399	0,429	0,462	0,498	0,526
Namangan	0,118	0,126	0,135	0,145	0,157	0,169	0,183	0,198	0,214	0,229
Mingbuloq	0,059	0,064	0,070	0,077	0,085	0,094	0,104	0,115	0,127	0,140
Kosonsoy	0,094	0,102	0,111	0,121	0,133	0,146	0,160	0,176	0,193	0,211
Norin	0,056	0,061	0,067	0,074	0,082	0,091	0,101	0,112	0,124	0,137
Pop	0,109	0,120	0,132	0,146	0,162	0,180	0,200	0,224	0,252	0,276
To‘raqo‘rg‘on	0,124	0,136	0,149	0,165	0,183	0,204	0,228	0,255	0,286	0,314
Uychi	0,101	0,110	0,120	0,131	0,144	0,158	0,173	0,190	0,209	0,228
Uchqo‘rg‘on	0,084	0,091	0,099	0,108	0,118	0,129	0,141	0,154	0,169	0,184
Chortoq	0,079	0,086	0,094	0,103	0,114	0,126	0,139	0,154	0,171	0,188
Chust	0,121	0,133	0,146	0,161	0,179	0,199	0,222	0,248	0,277	0,303
Yangiqo‘rg‘on	0,105	0,114	0,125	0,137	0,151	0,167	0,184	0,203	0,225	0,247

2-jadval natijalari Namangan viloyatida to‘qimachilik sanoati investitsion loyihalarining institutsional samaradorligi boshqaruv sifati, loyiha koordinatsiyasi va sanoat infratuzilmasining hududiy moslashuvchanligi bo‘yicha sezilarli tafovutlarga ega ekanini ko‘rsatadi. 2016-2025-yillar oralig‘ida Namangan shahri indeksi 0,284 dan 0,526 gacha oshib, 85,2 foizlik o‘shishni namoyon etgan. To‘raqo‘rg‘on tumanida ko‘rsatkich 0,124 dan 0,314 gacha, ya’ni 153,2 foizga, Chustda 0,121 dan 0,303 gacha yoki 150,4 foizga, Pop tumanida esa 0,109 dan 0,276 gacha oshgan. Shu bilan birga, Norin (0,137) va Mingbuloq (0,140) tumanlarida institutsional samaradorlik indeksining past darajada qolishi investitsion loyihalarni boshqarish, monitoring qilish va ishlab chiqarish tizimlariga integratsiyalash mexanizmlari sustligini ko‘rsatadi. Namangan shahri bilan Norin tumani o‘rtasidagi 0,389 punktlilik tafovut institutsional muhit sifati hududlar bo‘yicha keskin farqlanayotganini anglatadi.

<sup>1</sup> Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasining sanoat, investitsiya va ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari asosida muallif ishlanmasi

Mazkur natijalar investitsion loyihalarning muvaffaqiyati texnologik uskunalar yoki moliyaviy resurslar bilan cheklanmasligini, balki institutsional boshqaruvning moslashuvchanligi va koordinatsion samaradorligiga bog‘liqligini tasdiqlaydi. Namangan shahri, To‘raqo‘rg‘on va Chust tumanlarida yuqori institutsional indekslar sanoat klasterlari, logistika infratuzilmasi, eksport koordinatsiyasi va ishlab chiqarish monitoringi o‘rtasida nisbatan barqaror integratsiya shakllanganini ko‘rsatadi. Aksincha, Mingbuloq va Norinda investitsiyalar mavjud bo‘lsa ham, ularni ishlab chiqarish unumdorligi, eksport va innovatsion natijalarga aylantiruvchi institutsional mexanizmlar yetarlicha rivojlanmagan. Eng muhim ilmiy xulosa shuki, to‘qimachilik sanoatida investitsion samaradorlikni oshirish uchun “kapital qo‘yish” modelidan “institutsional boshqaruv va monitoring” modeliga o‘tish zarur. Aks holda investitsiya hajmi ortishi mumkin, biroq uning sanoat transformatsiyasiga ta’siri cheklangan bo‘lib qoladi.

### 3-jadval

#### Namangan viloyati hududlarida to‘qimachilik sanoati investitsion loyihalarining eksport va qo‘shilgan qiymat samaradorligi indeksi<sup>1</sup>

Hududlar	Yillar									
	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Namangan shahri	0,296	0,314	0,334	0,357	0,383	0,411	0,442	0,476	0,514	0,546
Namangan	0,119	0,127	0,137	0,148	0,160	0,174	0,188	0,204	0,222	0,239
Mingbuloq	0,061	0,066	0,072	0,079	0,087	0,096	0,106	0,117	0,129	0,142
Kosonsoy	0,097	0,105	0,115	0,126	0,139	0,153	0,168	0,185	0,204	0,223
Norin	0,058	0,063	0,069	0,076	0,084	0,093	0,103	0,114	0,126	0,139
Pop	0,112	0,123	0,136	0,151	0,168	0,188	0,210	0,236	0,267	0,293
To‘raqo‘rg‘on	0,129	0,141	0,155	0,171	0,190	0,212	0,237	0,265	0,297	0,326
Uychi	0,104	0,113	0,123	0,135	0,148	0,163	0,180	0,198	0,219	0,240
Uchqo‘rg‘on	0,086	0,093	0,101	0,110	0,121	0,133	0,146	0,160	0,176	0,193
Chortoq	0,081	0,088	0,096	0,106	0,117	0,130	0,144	0,160	0,178	0,196
Chust	0,124	0,136	0,150	0,166	0,184	0,205	0,229	0,256	0,287	0,315
Yangiqo‘rg‘on	0,108	0,117	0,128	0,140	0,154	0,170	0,188	0,208	0,231	0,254

3-jadval natijalari Namangan viloyatida to‘qimachilik sanoati investitsion loyihalarining eksport va qo‘shilgan qiymat samaradorligi hududiy eksport integratsiyasi, qayta ishlash chuqurligi va ishlab chiqarishning qiymat zanjirlariga ulanish darajasi bo‘yicha keskin differensiallashganini ko‘rsatadi. 2016-2025-yillar davomida Namangan shahri indeksi 0,296 dan 0,546 gacha oshib, 84,5 foizlik o‘sishni qayd etgan. To‘raqo‘rg‘on tumanida ko‘rsatkich 0,129 dan 0,326 gacha, ya’ni 152,7 foizga, Chustda 0,124 dan 0,315 gacha yoki 154,0 foizga, Pop tumanida esa 0,112 dan 0,293 gacha oshgan. Shu bilan birga, Norin (0,139) va Mingbuloq (0,142) tumanlarida eksport samaradorligi indeksining pastligi ushbu hududlarda ishlab chiqarishning asosan xomashyo yoki yarim tayyor mahsulotlarga yo‘naltirilganini ko‘rsatadi. Namangan shahri bilan Norin tumani o‘rtasidagi 0,407 punktlilik tafovut hududlararo eksport va qo‘shilgan qiymat yaratish imkoniyatlari o‘rtasidagi chuqur nomutanosiblikni tasdiqlaydi.

<sup>1</sup> Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasining sanoat, investitsiya va ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari asosida muallif ishlanmasi

Mazkur natijalar shuni ko'rsatadiki, to'qimachilik sanoatida investitsion loyihalarning haqiqiy samaradorligi ishlab chiqarish hajmi bilan emas, balki yaratilayotgan qo'shilgan qiymat va global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuv darajasi bilan belgilanadi. Namangan shahri, To'raqo'rg'on va Chust tumanlarida tayyor mahsulot ishlab chiqarish ulushining ortishi investitsiyalarni eksportbop va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlarga transformatsiyalash imkoniyati kuchayganini anglatadi. Mingbuloq va Norinda esa investitsiyalar asosan past qayta ishlash bosqichlariga yo'naltirilgani sababli iqtisodiy samaradorlik cheklangan bo'lib qolmoqda. Bu yerda asosiy muammo ishlab chiqarish hajmida emas, balki sanoatning value chain tizimiga yetarli darajada ulanmaganidadir. Demak, tekstil investitsiya siyosati xomashyo eksporti modelidan tayyor mahsulot, branding, dizayn va eksport logistikasiga asoslangan yuqori qo'shilgan qiymat modeliga o'tishi zarur.

To'qimachilik sanoati investitsion loyihalarining eksport va qo'shilgan qiymat samaradorligi alohida ko'rsatkich sifatida baholangan bo'lsa, ushbu natijalar texnologik-modernizatsion rivojlanish va institutsional samaradorlik indikatorlari bilan integratsiyalashgan holda kompleks baholanadi. Bunday yondashuv investitsion loyihalarning faqat eksport hajmi yoki mahsulot qiymati bilan emas, balki texnologik yangilanish, ishlab chiqarish samaradorligi, klasterlashuv, boshqaruv sifati va institutsional qo'llab-quvvatlash tizimi bilan uzviy bog'liq holda natija berishini ko'rsatadi. Shu sababli Namangan viloyati hududlarida to'qimachilik sanoati investitsion loyihalarining yakuniy kompleks samaradorligini aniqlashga xizmat qiladi hamda hududlarni innovatsion tekstil markazlari, o'suvchi sanoat hududlari, zaif modernizatsiya zonalarini va institutsional qo'llab-quvvatlashga muhtoj hududlar sifatida guruhlash imkonini beradi.

#### 4-jadval

### Namangan viloyati hududlarida to'qimachilik sanoati investitsion loyihalarining kompleks texnologik-modernizatsion va institutsional samaradorlik indeksi<sup>1</sup>

Hududlar	Yillar									
	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025*
Namangan shahri	0,299	0,317	0,337	0,359	0,384	0,411	0,439	0,470	0,504	0,533
Namangan	0,122	0,130	0,139	0,149	0,161	0,174	0,187	0,202	0,218	0,233
Mingbuloq	0,061	0,066	0,072	0,079	0,087	0,096	0,106	0,116	0,128	0,141
Kosonsoy	0,098	0,106	0,115	0,126	0,138	0,151	0,166	0,182	0,199	0,217
Norin	0,058	0,063	0,069	0,076	0,084	0,093	0,103	0,113	0,125	0,138
Pop	0,113	0,124	0,136	0,151	0,167	0,186	0,206	0,230	0,259	0,284
To'raqo'rg'on	0,130	0,142	0,156	0,172	0,190	0,212	0,236	0,264	0,295	0,323
Uychi	0,106	0,115	0,125	0,137	0,150	0,165	0,181	0,198	0,217	0,236
Uchqo'rg'on	0,088	0,095	0,103	0,112	0,122	0,134	0,147	0,161	0,177	0,193
Chortoq	0,082	0,089	0,097	0,107	0,118	0,131	0,145	0,160	0,178	0,195
Chust	0,125	0,137	0,151	0,167	0,185	0,206	0,230	0,257	0,287	0,314
Yangiqo'rg'on	0,109	0,118	0,129	0,141	0,155	0,171	0,189	0,209	0,232	0,255

<sup>1</sup> Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasining sanoat, investitsiya va ishlab chiqarish ko'rsatkichlari asosida muallif ishlanmasi

4-jadval natijalari Namangan viloyatida to‘qimachilik sanoati investitsion loyihalarining kompleks texnologik-modernizatsion va institutsional samaradorligi hududiy sanoat transformatsiyasi, texnologik adaptatsiya va value chain integratsiyasi darajasi bo‘yicha keskin tabaqalashganini ko‘rsatadi. 2016-2025-yillar davomida Namangan shahri kompleks indeksi 0,299 dan 0,533 gacha oshib, 78,3 foizlik o‘shishni namoyon etgan. To‘raqo‘rg‘on tumanida ko‘rsatkich 0,130 dan 0,323 gacha, ya‘ni 148,5 foizga, Chustda 0,125 dan 0,314 gacha yoki 151,2 foizga, Pop tumanida esa 0,113 dan 0,284 gacha oshgan. Shu bilan birga, Mingbuloq (0,141), Norin (0,138) va Uchqo‘rg‘on (0,193) tumanlarida kompleks samaradorlik indeksining pastligi ushbu hududlarda texnologik modernizatsiya, institutsional boshqaruv va eksportga integratsiyalashuv o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik yetarli shakllanmaganini ko‘rsatadi. Namangan shahri bilan Norin tumani o‘rtasidagi 0,395 punktlilik tafovut tekstil investitsiyalarining hududiy natijadorligi keskin nomutanosib ekanini tasdiqlaydi.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Mazkur tadqiqot natijalari Namangan viloyati to‘qimachilik sanoatida investitsion loyihalarining texnologik-modernizatsion va institutsional samaradorligi hududiy iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri ekanini tasdiqladi. Tahlillar investitsion loyihalar ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish bilan bir qatorda texnologik yangilanish, eksport salohiyatini oshirish, qo‘shilgan qiymat yaratish va sanoat klasterlarini rivojlantirishga sezilarli ta‘sir ko‘rsatganini ko‘rsatdi. Ayniqsa, Namangan shahri, To‘raqo‘rg‘on, Chust va Pop tumanlarida investitsion faollikning ortishi ishlab chiqarish samaradorligi hamda texnologik transformatsiya jarayonlarini jadallashtirgan.

Tadqiqot davomida investitsion loyihalar samaradorligi faqat kapital qo‘yilmalar hajmi bilan emas, balki institutsional boshqaruv sifati, raqamli monitoring tizimlari, logistika infratuzilmasi va eksportga integratsiyalashuv darajasi bilan ham chambarchas bog‘liqligi aniqlandi. Yuqori samaradorlik kuzatilgan hududlarda sanoat klasterlari, ishlab chiqarish kooperatsiyasi va texnologik modernizatsiya o‘rtasida uzviy bog‘liqlik shakllangani qayd etildi. Shu bilan birga, ayrim hududlarda texnologik yangilanish sur‘atlarining pastligi, eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarish ulushining yetarli emasligi hamda institutsional koordinatsiya mexanizmlarining sustligi investitsion samaradorlikni cheklovchi omil sifatida namoyon bo‘ldi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, tekstil sanoatida yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish tayyor mahsulot ishlab chiqarish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuv bilan bevosita bog‘liqdir. Investitsion loyihalarni texnologik-modernizatsion yondashuv asosida tashkil etish ishlab chiqarish unumdorligini oshirish, energiya va resurslardan samarali foydalanish hamda eksportbop mahsulotlar ulushini kengaytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- to‘qimachilik sanoatida investitsion loyihalarni baholashda texnologik modernizatsiya va eksport samaradorligi indikatorlarini asosiy mezon sifatida qo‘llash;
- sanoat korxonalarida raqamli monitoring, elektron boshqaruv va Sanoat 4.0 texnologiyalarini bosqichma-bosqich joriy etish;

- hududiy sanoat klasterlari va logistika infratuzilmasi o‘rtasidagi kooperatsiyani kuchaytirish;
- yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor tekstil mahsulotlari ishlab chiqarishni rag‘batlantirish va eksport geografiyasini kengaytirish;
- investitsion loyihalarda texnologik audit va institutsional monitoring tizimini takomillashtirish;
- ishlab chiqarish jarayonlarida energiya tejamkor va ekologik texnologiyalar ulushini oshirish;
- tekstil korxonalarida malakali muhandislik va texnologik kadrlar tayyorlash tizimini kuchaytirish.

Taklif etilgan yondashuvlar to‘qimachilik sanoatida investitsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligini oshirish, hududiy sanoat transformatsiyasini jadallashtirish, eksport salohiyatini kengaytirish hamda sanoatning uzoq muddatli raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. World Bank. The Global Textile and Garments Industry: The Role of Information and Communication Technologies in Exploiting the Value Chain. Washington, D.C.: World Bank, 2009.
2. United Nations Industrial Development Organization. Industrial Development Report 2024: Turning Challenges into Sustainable Solutions. Vienna: UNIDO, 2024.
3. International Trade Centre. Fibres, Textiles and Clothing: Competitiveness and Sustainable Value Chains. Geneva: ITC, 2024.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-maydagi PF-71-son “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-7369703>
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 16-yanvardagi PF-6-son “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini qo‘llab-quvvatlash hamda eksport salohiyatini oshirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida” Farmoni <https://lex.uz/docs/-6908347>
6. North D.C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. Cambridge University Press, Cambridge, 1990. - 152 p.
7. Coase R.H. The Firm, the Market and the Law. University of Chicago Press, Chicago, 1988. - 217 p.
8. Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. Free Press, New York, 1990. - 896 p.
9. Schumpeter J.A. Capitalism, Socialism and Democracy. Harper & Brothers Publishing, New York, 1942. - 381 p.
10. Romer P.M. “Endogenous Technological Change”. Journal of Political Economy, Vol. 98, No. 5, University of Chicago Press, 1990. - pp. 71-102.
11. Castells M. The Rise of the Network Society. Blackwell Publishing, Oxford, 1996. - 625 p.
12. Porter M.E., Kramer M.R. “Creating Shared Value”. Harvard Business Review, Vol. 89, No. 1-2, Harvard University Press, 2011. - pp. 62-77.

13. Gereffi G. Global Value Chains and International Competitiveness. Duke University Press, Durham, 2018. - 354 p.
14. Granberg A.G. Osnovi regionalnoy ekonomiki. Gosudarstvenniy universitet - Visshaya shkola ekonomiki, Moskva, 2000. - 495 s.
15. Abdurahmonov Q.X. Mintaqaviy iqtisodiyot va boshqaruv. Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2019. - 356 b.
16. G‘ulomov S.S. Raqamli iqtisodiyot asoslari. Toshkent: “Iqtisodiyot” nashriyoti, 2020. - 412 b.



# Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

**Muharrir:**

**Ingliz tili muharriri:**

**Rus tili muharriri:**

**Musahhih:**

**Sahifalovchi va dizaynerlar:**

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2026-yil, may, 5-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

[info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)

Bot:

[@marketingjournalbot](https://t.me/@marketingjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**



# Marketing

*ilmiy, amaliy va ommabop jurnali*

**Muharrir:**

**Ingliz tili muharriri:**

**Rus tili muharriri:**

**Musahhih:**

**Sahifalovchi va dizaynerlar:**

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2026-yil, may, 5-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

[info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)

Bot:

[@marketingjournalbot](https://t.me/@marketingjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**